



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA
RENTABELLIK KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI
BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ
ЭФФЕКТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕНТАБЕЛЬНОСТИ НА
ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ**

**IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ASSESSING ECONOMIC EFFICIENCY
BASED ON PROFITABILITY INDICATORS AT CONSTRUCTION MATERIALS
PRODUCTION ENTERPRISES**

Umirova Gulmira Shodiboy qizi

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-8865-0774

Annotatsiya

Maqolada qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda rentabellik ko‘rsatkichlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Korxonalarning aktivlar, kapital, daromadlar va xarajatlar bo‘yicha rentabellik darajalarini baholash uchun me‘yoriy hamda xavfli chegaralarga asoslangan baholash mezonini ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: rentabellik, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi, qurilish materiallari sanoati, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy monitoring, baholash mezonini.

В статье исследованы теоретические и практические аспекты использования показателей рентабельности при оценке экономической эффективности предприятий по производству строительных материалов. Для оценки уровня рентабельности предприятий по активам, капиталу, доходам и расходам разработан критерий оценки, основанный на нормативных и рискованных пределах.

Ключевые слова: рентабельность, рентабельность активов, рентабельность капитала, промышленность строительных материалов, экономическая эффективность, финансовый мониторинг, критерии оценки.

This article examines the theoretical and practical aspects of using profitability indicators to evaluate the economic efficiency of construction materials production enterprises. An evaluation criterion based on regulatory and risk thresholds has been developed to assess the profitability levels of enterprises in terms of assets, capital, income, and expenses.

Keywords: profitability, return on assets, return on capital, construction materials industry, economic efficiency, financial monitoring, evaluation criteria.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida qurilish materiallari sanoati iqtisodiy o‘rinishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli qurilish ishlari, infratuzilmaviy loyihalar va uy-joy dasturlarining rivojlanishi mazkur tarmoq korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirishni talab etmoqda.

Biroq tarmoq korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi, energiya resurslari narxlarining o‘zgarishi, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishi va bozor konyunkturasidagi tebranishlar korxonalar rentabelligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Natijada korxonalarning moliyaviy holatini tezkor baholash va iqtisodiy xavflarni oldindan aniqlash imkonini beruvchi zamonaviy baholash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Amaliyotda korxonalar faoliyati ko‘pincha alohida moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilinadi. Bu esa rentabellik darajasidagi salbiy o‘zgarishlarni erta aniqlash va ularga ta’sir etuvchi omillarni kompleks baholash imkonini cheklaydi. Shu sababli qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining daromadlari, xarajatlari, aktivlari va kapitalidan foydalanish samaradorligini yagona tizim asosida baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari iqtisodiy fanlarda eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik korxona faoliyati natijalari va sarflangan resurslar o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydi hamda korxonaning barqaror rivojlanish darajasini tavsiflaydi [1].

Rentabellik ko‘rsatkichlarining nazariy va uslubiy asoslari G.V. Savitskaya tomonidan keng tadqiq etilgan bo‘lib, muallif korxona faoliyatining yakuniy natijalarini baholashda foyda ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda rentabellik koeffitsiyentlaridan foydalanish zarurligini asoslab bergan [2].

A.D. Sheremet va R.S. Sayfullin moliyaviy tahlil metodologiyasida rentabellik ko‘rsatkichlarini korxonaning moliyaviy barqarorligi va xo‘jalik faoliyati samaradorligini baholashning muhim vositasi sifatida e’tirof etadilar [3]. V.Yu. Jdanov va I.Yu. Jdanovlarning tadqiqotlarida moliyaviy koeffitsiyentlar asosida korxona faoliyatini baholash usullari takomillashtirilgan bo‘lib, rentabellik ko‘rsatkichlari moliyaviy holatni baholashning asosiy mezonlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan [4].

Korxona samaradorligini oshirish masalalari A.Yu. Tanchik va A.V. Kovalenko tomonidan tadqiq etilib, ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish korxona rivojlanishining asosiy omillari sifatida ko‘rsatib berilgan [5]. N.K. Borisyuk, L.A. Soldatova va T.G. Masyukova iqtisodiy samaradorlikni korxona faoliyatining natijaviyligini ifodalovchi kompleks ko‘rsatkich sifatida talqin qilganlar [6].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida daromadlar, xarajatlar, aktivlar va kapital rentabelligini birgalikda baholash imkonini beruvchi me’yoriy va xavfli chegaralarga asoslangan kompleks baholash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun rentabellik ko‘rsatkichlarining me’yoriy va xavfli chegaralariga asoslangan kompleks baholash mezonini ishlab chiqildi.

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, moliyaviy koeffitsiyentlar usuli hamda rentabellik ko‘rsatkichlarini baholash metodlaridan foydalanildi.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun daromadlar, xarajatlar, aktivlar va kapital rentabelligini qamrab oluvchi kompleks baholash mezonlari ishlab chiqildi. Mazkur mezonlar korxonalarning moliyaviy natijalari va resurslardan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, daromadlar bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlarida umumiy daromadlar rentabelligining 10 foizdan past bo‘lishi korxonaning moliyaviy xavf zonasiga kirganligini bildiradi, 15–25 foiz oralig‘i esa me’yoriy holat sifatida qabul qilinadi. Xuddi shuningdek, sotish rentabelligining 20–35 foiz diapazonda bo‘lishi mahsulot realizatsiyasi samaradorligi yuqoriligini tavsiflaydi, 15 foizdan past daraja esa sotish faoliyatida muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Xarajatlar bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligining 12–22 foiz oralig‘ida bo‘lishi xarajatlar boshqaruvinining samarali tashkil etilganligini bildiradi. Aksincha, 7 foizdan past daraja ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borayotganligi yoki foyda hajmining qisqarayotganligini anglatadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi rentabellik ko‘rsatkichlari

Guruh nomi	Ko‘rsatkichlar nomi	Me‘yoriy (o‘rtacha) daraja	Xavfli daraja
1. Daromadlar bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlari	Umumiy daromadlar rentabelligi	15-25%	<10%
	Sotishdan olingan tushumlar rentabelligi	20-35%	<15%
	Asosiy faoliyat rentabelligi	10-20%	<5%
2. Xarajatlar bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlari	Umumiy xarajatlar rentabelligi	10-20%	<5%
	Ishlab chiqarish xarajatlar rentabelligi	12-22%	<7%
	Operatsion xarajatlar rentabelligi	10-18%	<5%
3. Aktivlar bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlari	Jami aktivlar rentabelligi	8-15%	<4%
	Asosiy kapital rentabelligi	12-20%	<6%
	Joriy aktivlar rentabelligi	15-25%	<8%
4. Kapital bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlari	Xususiy kapital rentabelligi	12-18%	<6%
	Qarz kapitali rentabelligi	10-16%	<5%

Izoh: Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida

Aktivlar bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlari korxonaning mavjud resurslaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Jami aktivlar rentabelligining 8–15 foiz oralig‘ida bo‘lishi aktivlardan samarali foydalanilayotganligini ko‘rsatsa, 4 foizdan past qiymat aktivlar tarkibidan foydalanish samaradorligi pasayganligini bildiradi.

Kapital bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlarida xususiy kapital rentabelligining 12–18 foiz oralig‘ida bo‘lishi investorlar va mulkdorlar uchun maqbul daraja hisoblanadi. Qarz kapitali rentabelligining 10–16 foiz oralig‘ida bo‘lishi esa jalb qilingan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Mazkur mezonlar asosida “Karbonat” AJ, “Jizzax plastmassa” AJ va “Zenatkor temir beton buyumlari” MCHJ faoliyati tahlil qilindi. Natijalar ayrim korxonalarda aktivlar va kapital rentabelligining pasayish tendensiyasi mavjudligini, ayrim davrlarda esa ko‘rsatkichlar xavfli zona chegaralariga yaqinlashganligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining pasayishi hamda ishlab chiqarish tannarxining ortishi rentabellik darajalariga salbiy ta’sir ko‘rsatganligi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida korxonalar faoliyatini uchta toifaga — me‘yoriy zona, ogohlantiruvchi zona va xavfli zonaga ajratish imkoniyati yaratildi. Bu esa korxonalarning moliyaviy holatini doimiy monitoring qilish, iqtisodiy xavflarni prognozlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalar iqtisodiy samaradorligini faqat sof foyda yoki sotish hajmi asosida baholash yetarli emas. Aktivlar va kapital rentabelligi ko‘rsatkichlari korxonaning mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini chuqurroq aks ettiradi.

Taklif etilgan metodikaning afzalligi shundaki, u korxonalarning moliyaviy holatini muntazam monitoring qilish, salbiy tendensiyalarni erta aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni ta’minlaydi. Natijada rentabellik darajalarining me‘yoriy va xavfli chegaralari asosida korxona faoliyatining holatini tezkor baholash imkoniyati yaratiladi. Mazkur yondashuv investitsion jozibadorlikni baholash, korxonalarni reytinglar, kreditga layoqatlilik darajasini aniqlash hamda strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 6-son 2026 yil

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada jami aktivlar rentabelligi 2020-yildagi 0,33 foizdan 2025-yilda 0,002 foizgacha kamaygan. Asosiy kapital rentabelligi esa 18,38 foizdan 2,08 foizgacha pasaygan. Bu holat korxonada asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi pasayganligini ko'rsatadi.

Joriy aktivlar, xususiy kapital va qarz kapitali rentabelligi ko'rsatkichlarida ham salbiy tendensiya kuzatilgan. Natijada korxonaning aksariyat ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan baholash mezonlaridagi xavfli zona chegaralariga yaqinlashganligi aniqlandi.

2-jadval

“Jizzax plastmassa” AJ aktivlar va kapital rentabelligi ko'rsatkichlari dinamikasi, %da [7]

Yil Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2020-yilga nisbatan o'zgarishi, % band
Jami aktivlar rentabelligi	0,33	1,30	0,20	0,19	0,01	0,002	-0,323
Asosiy kapital rentabelligi	18,38	9,29	2,65	3,08	1,19	2,08	-16,30
Joriy aktivlar rentabelligi	0,64	2,92	0,69	0,63	0,02	0,004	-0,639
Xususiy kapital rentabelligi	0,49	1,78	0,25	0,25	0,01	0,003	-0,490
Qarz kapital rentabelligi	0,95	4,78	1,00	0,73	0,02	0,005	-0,949

3-jadval

“Karbonat” AJ aktivlar va kapital rentabelligi ko'rsatkichlari, %da [8]

Ko'rsatkichlar/ yil	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2020-yilga nisbatan o'zgarishi, % band
Jami aktivlar rentabelligi	10,6	9,3	0,0	3,5	-12,9	-6,9	-17,6
Asosiy kapital rentabelligi	163,4	106,4	26,0	43,6	-45,0	-39,3	-202,7
Joriy aktivlar rentabelligi	15,0	13,5	0,1	5,5	-19,2	-9,6	-24,5
Xususiy kapital rentabelligi	12,7	12,7	0,1	5,8	-23,8	-15,0	-27,8
Qarz kapitali rentabelligi	64,4	35,6	0,1	8,6	-28,0	-12,9	-77,3

“Karbonat” AJda jami aktivlar rentabelligi 2020-yildagi 10,6 foizdan 2025-yilda -6,9 foizgacha pasaygan. Asosiy kapital rentabelligi 163,4 foizdan -39,3 foizgacha kamaygan bo'lib, bu korxonada investitsiya qilingan kapitalning samaradorligi sezilarli darajada yomonlashganligini ko'rsatadi. Shuningdek, joriy aktivlar, xususiy kapital va qarz kapitali rentabelligi ko'rsatkichlarida ham salbiy dinamikalar kuzatilgan. Ayniqsa, 2024–2025 yillarda barcha ko'rsatkichlarning xavfli zona chegaralaridan pastga tushishi korxonaning moliyaviy barqarorligi pasayganligini bildiradi(3-jadval).

Mazkur yondashuv “Karbonat” AJ, “Jizzax plastmassa” AJ va “Zenatkor temir beton buyumlari” MCHJ faoliyatiga joriy etildi hamda uning natijalari “O'zsanoat qurilish materiallari” uyushmasining 2025-yil 28-noyabrdagi №02/15-3918-sonli ma'lumotnomasi bilan tasdiqlandi. Joriy etish natijasida korxonalarning aktivlari va kapitalidan foydalanish samaradorligini baholash, moliyaviy xavflarni prognozlash hamda resurslardan samarali foydalanish strategiyalarining ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkoniyati yaratildi

Tadqiqot davomida rentabellik ko'rsatkichlarining me'yoriy va xavfli chegaralari ishlab chiqildi hamda ular asosida korxonalar faoliyatini me'yoriy, ogohlantiruvchi va xavfli zonalarga ajratish imkoniyati yaratildi. Taklif etilgan yondashuv “Karbonat” AJ, “Jizzax plastmassa” AJ va “Zenatkor temir beton buyumlari” MCHJ faoliyati misolida sinovdan o'tkazildi va uning amaliy ahamiyati tasdiqlandi.

Tahlillar natijasida korxonalarning iqtisodiy samaradorligiga asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish tannarxi darajasi, sotish hajmlari va kapital tarkibi aniqlanib, ularning rentabellik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlarini baholashning ishlab chiqilgan me‘yoriy va xavfli chegaralar tizimini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Korxonalarda moliyaviy monitoring tizimini takomillashtirish hamda aktivlar va kapital rentabelligi ko‘rsatkichlarini muntazam nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish zarur.

3. Ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligini oshirish maqsadida energiya tejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish lozim.

4. “O‘zsanoat qurilish materiallari” uyushmasi va tarmoq korxonalarida ishlab chiqilgan metodikadan foydalanish orqali moliyaviy xavflarni erta aniqlash va prognozlash tizimini yaratish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan metodika qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash, iqtisodiy xavflarni prognozlash hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Борисюк Н.К., Солдатова Л.А., Масюкова Т.Г. Экономическая эффективность предприятия: понятие, способы определения, особенности повышения // Интеллект. Инновации. Инвестиции. – 2017. – №8. – С. 14–20.
2. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: учеб. пособие. – 7-е изд., испр. – Минск: Новое знание, 2002. – 704 с.
3. Шеремет А.Д., Сайфуллин Р.С. Методика финансового анализа предприятия. – М. : ЮНИ-ГЛОБ, 2010. – 215 с.
4. Жданов В.Ю., Жданов И.Ю. Финансовый анализ предприятия с помощью коэффициентов и моделей: учебное пособие. – М.: Проспект, 2024. – 176 с.
5. Танчик А.Ю., Коваленко А.В. Современные проблемы эффективности развития предприятия // Экономические исследования: анализ состояния и перспективы развития: монография. – Воронеж: ВГПУ, 2010. – С. 130–163.
6. Борисюк Н.К., Солдатова Л.А., Масюкова Т.Г. Экономическая эффективность предприятия: понятие, способы определения, особенности повышения // Интеллект. Инновации. Инвестиции. – 2017. – №8. – С. 14–20.
7. O‘zsanoat qurilish materiallari uyushmasi. Qurilish materiallari sanoati rivojlanishi bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024. – 85 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining sanoat statistikasi: statistik to‘plam. – Toshkent, 2024. – 312 b.